

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlar.....	106
-----------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 37.016.3(575.1):930.85

SOVET DAVRIDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI QURILISHI VA INFRATUZILMASINING SHAKLLANISHI (1970–1990-yillar)**СТРОИТЕЛЬСТВО И РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКСКОЙ ССР В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД (1970–1990)****THE CONSTRUCTION AND FORMATION OF PRESCHOOL EDUCATION INFRASTRUCTURE IN THE UZBEK SSR DURING THE SOVIET PERIOD (1970–1990)**Iroda Rasulovna Tishabayeva 

Farg'ona davlat texnika universiteti Ijtimoiy fanlar va sport kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1970–1990-yillar davomida O'zbekiston SSR hududida maktabgacha ta'lim muassasalarining qurilishi va ularning moddiy-texnik infratuzilmasini shakllantirishga doir masalalar tarixiy tahlil qilinadi. Maqola O'zbekiston SSR Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi, Ministrlar Soveti, hamda Maorif Ministrligining qarorlari asosida amalga oshirilgan ishlar, ajratilgan mablag'lar, qurilish sur'atlari, hamkor tashkilotlarning faoliyati va yuzaga kelgan muammolarni yoritadi. Ushbu tarixiy tadqiqot orqali Sovet davrida ijtimoiy infratuzilma siyosatining maktabgacha ta'limga ta'siri ochib beriladi.

Аннотация

В данной статье представлен исторический анализ строительства дошкольных образовательных учреждений и формирования их материально-технической базы в Узбекской ССР в период 1970–1990 годов. В работе рассматриваются меры, принятые на основе решений ЦК Компартии Узбекистана, Совета Министров и Министерства народного образования. Особое внимание уделено объемам строительства, выделенным средствам, деятельности партнерских организаций и возникшим проблемам. Исследование раскрывает влияние политики социальной инфраструктуры советского периода на развитие системы дошкольного образования в Узбекистане.

Abstract

This article provides a historical analysis of the construction of preschool educational institutions and the development of their material-technical infrastructure in the Uzbek SSR during the period from 1970 to 1990. The study explores state policies implemented through the decisions of the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan, the Council of Ministers, and the Ministry of Education. It highlights the scope of construction, allocated funding, the role of partner organizations, and the challenges encountered. The research reveals the influence of Soviet-era social infrastructure policy on preschool education development in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: maktabgacha tarbiya, sovet davri, ijtimoiy infratuzilma, moddiy-texnik baza, korxona, otaliq, kapital qo'yilma.

Ключевые слова: дошкольное образование, советский период, социальная инфраструктура, материально-техническая база, предприятие, шефство, капитальные вложения.

Key words: preschool education, Soviet period, social infrastructure, material and technical base, enterprise, patronage, capital investment.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Chunki har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashning muhim poydevori aynan erta yoshdagi ta'lim va tarbiyada yotadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q" [11].

Mazkur so'zlar maktabgacha ta'lim tizimining nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahamiyatini ham ifodalaydi. Shu bois, bu tizimning tarixiy shakllanish jarayonini chuqur

o'rganish, ayniqsa, sovet davrida amalga oshirilgan siyosiy qarorlar va infratuzilmaviy islohotlarni tahlil qilish hozirgi islohotlar uchun muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qiladi.

METODLAR VA O'RGANILGANLIK DARAJASI

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritildi. 1970–1990-yillar oralig'ida O'zbekiston SSRda maktabgacha ta'lim muassasalarining qurilishi, ularning moddiy-texnik infratuzilmasini rivojlantirish, davlat tomonidan ajratilgan kapital qo'yilmalar, qurilish tashkilotlarining roli, hamkorlik va otaliq mexanizmlari, hamda yuzaga kelgan tizimli muammolar tarixiy-hujjatli asosda tahlil etiladi.

O'zbekiston SSRda maktabgacha ta'lim tizimining shakllanishi va rivojlanishiga oid ayrim masalalar sobiq ittifoq davrida nashr etilgan rasmiy hujjatlar, statistik to'plamlar hamda davriy nashrlarda muayyan darajada yoritilgan.

Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimi tarixiga bag'ishlangan ayrim ilmiy maqolalar va nomzodlik-dissertatsiyalarda bu masala qisman ko'rib chiqilgan. Xususan, M. Xodjiyevaning "70-yillarning oxiri va 80-yillarning boshlarida O'zbekistonda qishloqning ijtimoiy rivojlanishi: tajriba va muammolar" [1.], N. Quvvatovanning XX asrning 20-80-yillarida O'zbekiston qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (Qashqadaryo viloyati misolida)" [2.] nomli dissertatsiyalarida ayrim masalalar tahlil qilingan.

Shu bilan birga, S. Shermuxammedov "Ta'lim va tarbiya ishlarini takomillashtirishning muhim masalalari" nomli maqolasida maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya masalalariga to'xtalgan [3.], biroq qurilish infratuzilmasi, moddiy-texnik baza va otaliq (homiylilik) tizimi alohida tadqiqot mavzusi sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Shu boisdan, 1970–1990-yillar davrida O'zbekiston SSRda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi, moddiy-texnik infratuzilmaning shakllanishi va bu sohadagi siyosiy-huquqiy qarorlar ijrosini tarixiy nuqtai nazardan chuqur tadqiq etish ilmiy adabiyotda dolzarb va yetarlicha o'rganilmagan mavzulardan biri hisoblanadi.

NATIJALAR

1970-yil 2-oktabrda O'zbekiston SSR Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi hamda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan muhim ahamiyatga ega bo'lgan «Respublikada maktabgacha ijtimoiy tarbiyaning hozirgi holati va istiqboldagi rivoji haqida» qaror qabul qilindi. Hujjatda respublika bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, yangi bog'chalar va bolalar muassasalarini qurish, ularni zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash hamda mazkur muassasalar uchun zarur bo'lgan malakali pedagog va tarbiyachi kadrlarni tayyorlash masalalari batafsil yoritilgan edi [3.3.].

Shuningdek, qarorda mavjud ishlab chiqarish korxonalari, qurilish tashkilotlari, qishloq xo'jaligi tizimidagi kolxoz va sovxozlar maktabgacha ta'lim muassasalariga homiylilik (otalik) qilish orqali ularni rivojlantirishga faol hissa qo'shishlari zarurligi alohida ta'kidlangan.

Biroq qaror ijrosi respublika hududlarida bir xilda va samarali tarzda amalga oshirilmagan. Xususan, Farg'ona va Buxoro oblastlari, shuningdek, O'zSSRning Energetika va elektrlashtirish, Sanoat, Qurilish materiallari hamda Qishloq xo'jaligi vazirliklari hamda «Uzglavvodstroy» kabi yirik tashkilotlar belgilangan reja va topshiriqlarni to'liq bajara olmadi [3.3.].

Qurilish sohasida faoliyat yurituvchi «O'zkolxozstroy», «O'zbekgidroelektrostroy» va «Glavtashkentstroy» kabi yirik tashkilotlar ham maktabgacha muassasalar uchun mo'ljallangan obyektlarni belgilangan muddatda qurib bitkazishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelgan. Ularning ayrimlari qurilish ishlarini boshlashda sustkashlik qilgan bo'lsa, boshqalari moliyaviy va texnik resurslar yetishmasligi sababli rejalarni bajara olmagan.

1971–1975-yillar davomida ayrim oblastlarda maktabgacha ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun ajratilgan katta miqdordagi mablag'lardan to'liq foydalanilmagan. Statistik ma'lumotlariga ko'ra, bu yillarda 20 million so'm atrofidagi mablag' turli sabablarga ko'ra o'zlashtirilmay qolgan [3.3.]. Mablag'lardan foydalanilmasligi esa bir qator muassasalarning qurilishi to'xtab qolishiga yoki kechiktirilishiga olib kelgan.

Bundan tashqari, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan ko'plab bino va obyektlar o'z vaqtida qurib bitkazilmagan. Bunga sabab sifatida qurilish materiallari ta'minotidagi uzilishlar, zamonaviy qurilish texnikalari va mexanizmlarining yetishmasligi, shuningdek, ko'plab og'ir jismoniy ishlarning haligacha qo'lda bajarilishi keltiriladi. Qurilish sohasida zamonaviy texnologiyalar joriy etilmaganligi, ishchilarning yetishmasligi va tashkilotlararo muvofiqlashtirishning sustligi muammolarni yanada chuqurlashtirgan.

TARIX

Masalan, 1977-yilda Andijon viloyatida 11 ta maktabgacha ta'lim muassasasi qurilishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, ulardan 6 tasi, jumladan, Marhamat tumanidagi «Paxtakor» kolxozida barpo etilishi kerak bo'lgan bolalar bog'chasi belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirilmagan [6.]. Bu holat qaror ijrosi borasidagi jiddiy muammolar va tizimli kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi.

1971-yil 15-iyul kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1-sessiyasi respublika ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim voqealardan biri bo'ldi [7.21.]. Ushbu sessiyada mamlakatda sotsial-madaniy va maishiy infratuzilmani rivojlantirish, xususan, maktabgacha ta'lim, maktablar, uy-joylar va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlarning qurilishi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar keng muhokama qilindi. Shu jarayonda bir qator oblast va ularning rahbar tashkilotlari keskin tanqid ostiga olindi.

Xususan, Surxondaryo oblastida maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi bo'yicha ajratilgan mablag'larning faqat 29 foizi o'zlashtirilganligi sessiyada alohida qayd etildi. Bu holat faqat maktabgacha ta'lim muassasalari bilan cheklanmagan. Uy-joy qurilishi bo'yicha ham ajratilgan mablag'larning atigi 61 foizi, umumiy ta'lim maktablari qurilishi uchun esa 51 foizi o'zlashtirilgani aniqlangan. Bu ko'rsatkichlar Surxondaryo oblasti rahbariyatining, ayniqsa oblast Soveti va uning ijroiya qo'mitasining qurilish ishlari va ijtimoiy sohalarga loqayd munosabatda bo'lganini yaqqol namoyon etdi.

Shu bilan birga, sessiyada ijobiy misollar ham tilga olindi. Jumladan, Andijon viloyati Soveti va uning ijroiya qo'mitalari tomonidan maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari masalalariga e'tibor berilayotgani, bu borada muntazam ishlar olib borilayotgani e'tirof etildi. Bu oblastda ta'lim sohasiga nisbatan mas'uliyatli yondashuv shakllanayotganini ko'rsatadi.

1971-yil 4-yanvar kuni esa Sirdaryo oblasti Xalq ta'limi boshqarmasining yig'ilishi bo'lib o'tdi [8.64.]. Yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimidagi mavjud muammolar atroficha muhokama qilindi. Jumladan, viloyatdagi bog'chalarning 70 foizi mukammal ta'mirtalab ahvolda ekani, Jizzax shahridagi bog'chalar esa ayniqsa og'ir holatda bo'lib, ularning atigi 28 foizi qoniqarli holatda ishlayotgani aytib o'tildi. Ta'kidlanishicha, oblastdagi maktabgacha tarbiya muassasalar binolarining 50 foizi doimiy foydalanish uchun mo'ljallanmagan, ya'ni vaqtincha moslashtirilgan binolardan iborat bo'lgan. Bunday binolar bolalar salomatligi, xavfsizligi va sifatli tarbiya-talim olishiga jiddiy tahdid solgan.

1980–1981-yillarda O'zbekiston SSRda aholi sonining yildan-yilga ortib borishi natijasida maktabgacha ta'lim muassasalariga bo'lgan talab keskin oshdi. Bu esa bolalar bog'chalariga joylashish uchun mavjud imkoniyatlarning yetarli emasligini ko'rsatdi. Aholi talabini qondirish uchun ko'rilgan choralar samara bermay, mavjud bog'chalarda o'rinlar soni keskin kamlik qilaverdi. Ko'plab hududlarda bolalar bog'chalari qurilishi rejalashtirilgan bo'lsa-da, qurilish ishlarining bajarilishi sur'atlari sust bo'lgan.

Jumladan, 1980-yil natijalariga ko'ra, Jizzax oblastida maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi bo'yicha belgilangan rejalar atigi 71 foizga bajarilgan. Qashqadaryo oblastida bu ko'rsatkich 80 foizni, Sirdaryoda 88 foizni, Surxondaryoda 98 foizni, Toshkent shahrida esa 86 foizni tashkil qilgan [9.28.]. Bu ko'rsatkichlar hududlar o'rtasida sezilarli tafovut borligini, ba'zi oblastlarda masalaga jiddiyoq yondashilayotganini ko'rsatgan bo'lsa-da, umumiy holat mamlakat miqyosida maktabgacha ta'lim muassasalariga bo'lgan ehtiyojni to'liq qoplashga imkon bermagan.

1981-yilning dastlabki 9 oyi davomida ham vaziyat sezilarli darajada o'zgarmagan. Respublika Maorif Ministrligiga qarashli bolalar bog'chalarini mukammal ta'mirlash va yangi obyektlar qurish ishlari umumiy rejaga nisbatan 65 foizga bajarilgan, ya'ni rejaning uchdan bir qismi amalga oshirilmay qolgan. Shuningdek, vazirlikka qarashli bo'lmagan, lekin otaliq (homi) tashkilotlarga birlashtirilgan bog'chalar qurilishi bo'yicha bajarilgan ishlar ham rejalariga nisbatan past darajada qolgan. Jumladan, ushbu tashkilotlarga qarashli bog'chalar qurilishi borasida rejalar atigi 63 foizga bajarilgan. Qishloq xo'jaligi sektoriga tegishli kolxoz va sovxoz bog'chalarining qurilishi esa 72 foiz darajasida amalga oshirilgan [9.28.].

Bu davrda qurilish ishlarining bajarilmay qolishining asosiy sababi — yetarli ishchi kuchining mavjud emasligi bo'lgan. Qurilish obyektlariga malakali va doimiy ishchilarni jalb qilishda muammolar kuzatilgan.

Qurilish ishlari to'liq yakunlanmaganligi bois mavjud bolalar bog'chalarida haddan tashqari siqilish holatlari kuzatilgan. Bog'chalarda bolalar sonining sig'imdan ortiq bo'lishi natijasida ta'lim va

tarbiya jarayonlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar buzilgan Ba'zi holatlarda esa bolalar qabul qilishda cheklovlar kiritilgan, bu esa ota-onalar orasida noroziliklarga sabab bo'lgan.

1980-yillarda respublikada bog'cha binolarini qurishda ijobiy holatlar ham kuzatilgan. Respublika miqyosida 1975–1980-yillar oralig'ida maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish bo'yicha belgilangan besh yillik rejaning bajarilish ko'rsatkichi 89,7 foizni tashkil etdi [4.7.].

Ayni paytda, bu davrda erishilgan natijalarga qaramay, ayniqsa qishloq joylarda bog'cha qurilishi talab etilgan darajaga yetmagan. Dastlabki rejalarga ko'ra, 1975–1980-yillar davomida respublika bo'yicha jami 120 ming o'rinli bog'cha binolari qurilishi ko'zda tutilgan edi. Biroq, mazkur rejaga to'liq erishilmadi. Haqiqatda esa atigi 72,6 ming o'rinli muassasalar qurib bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan. Bu esa dastlabki rejaga nisbatan atigi 60 foiz atrofida natijaga erishilganini anglatadi.

Qishloq hududlarida qurilish sur'atlarining pastligi bir qator omillar bilan izohlanadi. Bular orasida moliyaviy va texnik resurslarning yetishmovchiligi, malakali ishchi kuchining tanqisligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi va tashkiliy sustkashliklar muhim omillar sifatida ajralib turadi. Qishloqlarda maktabgacha ta'lim muassasalariga ehtiyoj yuqori bo'lishiga qaramay, qurilish ishlari asosan shaharlarda jadallik bilan olib borilgan, natijada shahar-qishloq o'rtasidagi farq saqlanib qolgan.

Shunga qaramay, ijobiy misollar ham mavjud. Jumladan, 1981–1982-yillarda Qashqadaryo oblastining Nishon tumanida 280 o'rinli ikki yangi bolalar bog'chasi qurib bitkazilib, foydalanishga topshirilgan [2. 112.]. Bu obyektlar mahalliy aholi uchun muhim ijtimoiy infratuzilma sifatida xizmat qilishni boshladi.

1980-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, O'zbekiston SSRda maktabgacha ta'lim tizimi rivojida bir qator yangi muammolar yuzaga chiqa boshladi. Bu davrda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida boshlangan inqiroz holatlari, birinchidan, iqtisodiyotdagi pasayish, ikkinchidan esa markaziy byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmining kamayishi bilan bog'liq edi. Ayniqsa, 1985–1990-yillar oralig'ida bolalar bog'chalari qurilishi keskin sekinlashdi, mavjud muassasalarni saqlab qolish esa murakkab masalaga aylandi. Bu holat bolalar bog'chalari va yashilar sonining yetarli darajada oshmasligiga, mavjud bog'chalarning esa sifat jihatidan talabga javob bermay qolishiga olib keldi.

1989-yilda respublika bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari – davlat kapital qo'yilmalari, otaliq tashkilotlar, korxona mablag'lari va mahalliy budjetlar hisobidan olib borilayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi rejasining 45 foizi bajarilmay qolgan [10.2.]. Bu degani, yarmidan ko'proq obyektlar belgilangan muddatda qurib bitkazilmagan yoki umuman ishga tushirilmagan.

Yana ham og'irroq manzara 1990-yilning birinchi yarim yilligida kuzatilgan. Hisobotlarga ko'ra, davlat kapital qo'yilmalari hisobidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan qurilish ishlarining atigi 18 foizi amalga oshirilgan [10.2.]. Deyarli har beshta rejalashtirilgan obyektning to'rttasi umuman ishga tushmagan. Bu esa nafaqat qurilish sur'atlarining pasayganini, balki butun moliyaviy va tashkiliy tizimda inqiroz boshlanayotganini ko'rsatadi.

Shu yillarda O'zbekiston SSR bo'yicha 4700 o'rinli yangi bolalar bog'chalari qurilishi rejalashtirilgan edi. Biroq ko'plab obyektlar shoshilinch tarzda, kam mablag'lar hisobiga barpo etilgan. Bu obyektlarning aksariyati uch yilga bormasdan foydalanish uchun yaroqsiz — avariya holatiga tushib qolgan [1.149.]. Bu holat nafaqat davlat mablag'larining samarasiz sarflanishiga, balki bolalarning sog'lig'i va xavfsizligiga tahdid tug'dirgan.

1990-yillarning boshida iqtisodiy inqiroz sabab ko'plab ishlab chiqarish korxonalari yopildi yoki qisqartirildi, bu esa ularga biriktirilgan bolalar bog'chalarining ham faoliyatini izdan chiqardi.

1991-yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan paytda, mamlakat maktabgacha ta'lim tizimi og'ir moliyaviy, moddiy va tashkiliy holatda edi. Respublikadagi minglab maktabgacha ta'lim muassasalari kapital ta'mirga muhtoj edi, ayrimlarida esa tarbiyachilar soni keskin kamaygan.

XULOSA

1970–1980-yillarda boshlangan maktabgacha ta'lim tizimining kengaytirilishi va modernizatsiyasi harakati 1990-yillarga kelib, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar fonida katta to'siqlarga duch keldi. Sovet tuzumining qulashidan so'ng, sobiq tizimdan qolgan ijtimoiy infratuzilma — jumladan, bolalar bog'chalari tarmog'i ham isloh qilinishi kerak edi. Bu islohotlar esa mustaqil O'zbekiston Respublikasi tomonidan yangi yondashuvlar asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalardan biri edi.

TARIX

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Хаджиева М. Социальное развитие села Узбекистана в конце 70-х и начале 80-х годов: опыт и проблемы. Дисс. на соиск. уч. степ. докт. ист. наук. – Тошкент, 1992. – С. 149.
2. Quvvatova N. XX asrning 20-80-yillarida O'zbekiston qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (Qashqadaryo viloyati misolida). Tarix fanlari nomzodlik dissertatsiyasi. 112-bet.
3. Шермухаммедов С. Таълим ва тарбия ишларини такомиллаштиришнинг муҳим масалалари //Совет мактаби. 1976. № 9. – Б. 3.
4. Сборник важнейших постановлений и приказов. – Ташкент, 1981. – С. 7.
5. Кашкадарьинская правда. 1982. 16 декабр.
6. Мактабгача тарбия муассасаларига ғамхўрлик ва эътиборни кучайтирайлик //Ўқитувчилар газетаси, 1977 йил 16 октябрь;
7. O'zMA, 2454-fond, 6-ro'yxat, 2012-ish, 21-varaq.
8. O'zMA, 94-fond, 8-ro'yxat, 108-ish, 64-varaq.
9. O'zMA, 2582-fond, 1-ro'yxat, 3539-ish, 28-varaq.
10. O'z MA, R.837-fond, 41-ro'yxat, 7858-ish, 2-varaq.
11. <https://kun.uz/news/2022/11/15/sarflangan-investitsiyalar-ortigi-bilan-qaytishiga-shubha-yoq-shavkat-mirziyoyev-maktabgacha-talim-sohasiga-etibor-haqida>.